

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

HUQUQ – IJTIMOIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLUVCHI VOSITA

Sharipova Guli Nusrat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

tel:+998931586633 ,ektron pochta :sharipovag142@gmail.com

Ma'lumki, jamiyat kishilar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlari tizimidan iborat. Ushbu tizim o'z doirasiga turfa xil munosabatlarni qamrab olgan murakkab jamlanmadir. Bunday murakkablik va turfa xillik ijtimoiy munosabatlari bilan o'zaro ta'sirli aloqada bo'lgan hodisalardan ham xuddi shunday mutanosiblikni talab etadi. Shunday ijtimoiy hodisalardan biri huquqdir.

Huquq (yuridik ma'noda) - bu davlat tomonidan himoya qilinadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig'indisi. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyatorbo'lib, uning bu xususiyati ijtimoiy munosabatlari bilan bo'ladigan muntazam aloqadorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlari xilma-xil, biroq shunga qaramay ular ma'lum darajada ixtisoslashadi, mazmunan muayyan guruhlarga birlashadi. Ushbu obyektiv jarayonni parallel ravishda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq ham o'z boshidan kechirishini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni umummajburiy xulq-atvor, yurishturish qoidalari ham tegishincha guruhanadi, tizimlanadi va yaxlit huquqni tashkil etadi. U huquqiy munosabatlari va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. Huquq davlat bo'lib uyushgan jamiyatda paydo bo'ladi va mulkchilik munosabatlarini, xo'jalik aloqalari mexanizmini mustahkamlaydi, mehnat va uning mahsulotlarini jamiyat a'zolari o'rtasida muayyan o'lchov va shakllarda taqsimlab turuvchi vazifasini o'taydi, vakolatli organlar, davlat boshgaruvi organlari shakllanishi, tartibi, faoliyatini belgilab beradi, nizolarni qay yo'sinda hal qilish kerakligini, mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qarshi kurash choralarini belgilaydi, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Huquq normalari boshqa ijtimoiy tartibga soluvchi normalari (din, axloq, odat va boshqalar) dan o'zining majburiyligi bilan ajralib turadi. Huquqning o'ziga xos umumiyy va maxsus belgilari mavjud. Huquqning ijtimoiyligi, nomativ ko'rsatmalardan iboratligi, adolat va erkinlik g'oyalalarini ifodalashi, umummajburiy va irodaviy xususiyatlari, qomuniy aniqligi, rasman belgilanganligi, tizimligi va jo'shqinligi, davlat tomonidan muhofaza qilingnligi bilan ajralib turadi¹.

Huquq jamiyat hayotining turli sohalari iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma'naviy munosabatlarga 'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Yuridik nuqtai nazardan bu funksiyalarni 2 turga: regul yativ (tartibga soluvchi) va negativ (qo'riqlovchi) funksiyalarga ajratish mumkin. Huquqning regulativ funksiyasi jamiyat a'zolari yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarni o'rnatishdan, ijtimoiy mumosabatlarni huquqiy asosga qo'yishdan, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy alogalarni uyg'unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat.

Huquqning negativ fumksiyasi uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta'sir etish yo'nalishi bo'lib, u umumiyy ahamiyatga molik iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa

¹ Davlat va huquq nazariyasi:darslik.-Toshkent:TDYU,2021

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta'minlashga va shu bilan birga, jamiyatga yet, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi. Huquqning bu funksiyasiga xos xususiyatlar uni davlatning huquqni muhofaza etish faoliyati bilan qiyoslaganda aniq namoyon bo'ladi. Tegishli davlat idoralari huquq sohiblari tomonidan qonun talablari qatiy bajarilishini ta'minlaydi, janmiyatda gonuniylik muhitini vujudga keltiradi.

Huquqning nazariy masalalarini G'arbda, jumladan, Yevropada ijtimoiy fan soha olimlari, ayniqsa huquqshunoslari teran va izchil yoritib kelmoqdalar. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda ham bu boradagi winishlar va sa'y-harakatlar, izlanish va tadqiqot ishlari birmuncha kuchaydi. O'zbek huquqshunoslik fani vujudga keldi. Bu fan namoyandalari milliy davlatchilik tarixini, huquq va davlat umumnazariy masalalarini o'rganish borasida milliy qadriyatlarini, ilmiy merosni zamonaviy umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar².

Bu sohaga milliy istiqlolni mustahkalash ishining bir qismi sifatida qaramoqdalar. Ma'lumki, jamiyat - bu kishilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning mahsuli, ular hayotining ma'lum bir tashkiliyligi, mohiyati jihatidan kishilar va ularning guruahlari o'rtasidagi turli xil (iqtisodiy, fuqarolik, oilaviy, ma'naviy, mehnat, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.

Ijtimoiy huquq tushunchasi shaxsning jamiyatdagi maqomini aks ettiruvchi asosiy tushunchalardan biridir. Uni huquqning bir tarmog'i deb qabul qilinishi tushunchaning mohiyatini anchayin toraytirib ko'rsatadi. Aslida ming yillar davomida shakllangan xalq og'zaki ijodiyoti, e'tiqodga oid tafakkur va alohida shaxslarning jami yat hayoti, jarayonlar haqidagi fikrlari Ijtimoiy huquqning aniq ifodasi bo'lib xizmat qiladi³. Har bir maqol,hikmat, asar ijtimoiy huquqni o'zida ifoda etadi va voqeylekka nisbatan shaxs, guruh yoki jamoalarning munosabatini, shu bilan jamiyat tartibotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ijtimoiy munosabatlar - ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi hayotiy ne'matlarni taqsimlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish yuzasidan kelib chiqadigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlarning quyidagi turlari mavjud: milliy, etnik, guruhiy, shaxsiy va boshqalar. Ijtimoiy munosabatlar faqat ijtimoiy subyektlar, ya'ni shaxslar va ularning uyushmalari o'rtasida yuzaga keladi. Shu jihatdan olganda, insonning o'zi yaratgan sun'iy obyektlari va tabiat ne'matlari (o'simlik va

hayvonot dunyosi)dan foydalanishini ijtimoiy aloqalar sifatida tavsiflab bo'lmaydi⁴.

Ijtimoiy munosabatlar kishilarning ozaro mavhum aloqalari emas. U moddiy va ma'naviy madaniyatda o'z ifodasini topgan kishilarning bir-biriga ta'siri, muloqoti, qiziqish va ehtiyojlarning uyg'unlashuvi, fikr va e'tiqodlarining qiyoslashuvi, faoliyat va tajriba almashuvi natijasidir. Muloqotda kishilarning ratsional, emotsional va erkin tarzda bir-biriga ta'siri,kayfiyatları va qarashlari shakllanadi, turmush va xulq-atvor tarzi, odatlar, qiliqlar o'zlashtiriladi, ahillik, hamkorlik kabi guruhiy yoki ij'timoiy faoliyatini ifodalovchi xislatlar yuzaga keladi.

Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlar nafaqat huquq normalari bilan, balki boshqa ijtimoiy normalar bilan ham tartibga solinadi. Ayni paytda shaxslarning texnik obyektlardan, hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanishi bilan bog'liq masalalar sof ijtimoiy normalar bilan

² <https://uz.m.wikipedia.org>

³ Davlat va huquq nazariyasi:darslik.-Toshkent:TDYU,2021

⁴ <https://library-tsul.uz>

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

tartibga solinmaydi. «Ijtimoiy munosabatlar», «normativ tartibga solish», «ijtimoiy normalar» kabi kategoriyalar davlat va huquq hodisalarini, xususan, huquqning funksiyalari va vazifalarini yanada teranroq anglashda muhim ahamiyatga egadir.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "O'zbekiston 2030" strategiyasining qabul qilinishi milliy qonunchilikni takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, shuningdek, huquqiy tartibga solish bargarorligini ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. "Ozbekiston 2030" strategiyasining norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish bo'yicha maqsadiga erishish, shuningdek, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, shu jumladan, ulardag'i huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish va havolaki normalarini amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda huqugni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdag'i PF-5505-son "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi Farmoni.

1. 2017 -2023-yillarda qabul qilingan 135 ta yaxlit qonunda jami 543 ta havolaki norma mavjudligi, shundan 23 ta qonundiagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo'yicha qonunosti hujjalari qabul qilinmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasи (keyingi o'rinnarda – chora-tadbirlar rejasи) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasining to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushini izchil oshirib borish hamda qonunlardagi havolaki normalar o'z vagtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2024-yil 1-martdan boshlab quyidagi tartib-taomillarni joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin: qonun loyihasidagi havolaki normalarni amalga oshirishning aniq muddatlarini va mas'ul ijrochilarini loyihaning o'zida majburiy tartibda belgilash; tegishli sohani tartibga soluvchi qonun loyihasini tayyorlashda ushbu sohadagi qonunosti hujjalari bilan tartibga solingan munosa batlarni qonun darajasiga ko'tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligini belgilash va bu haqda qonun loyihasining tushuntirish xatida ko'rsatish; qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun uning tartibga solish ta'sirini baholash amaliyotini joriy etish.

4. Normativ-huquqiy hujjat loyihalarni ishlab chiqishda fugarolik jamiyatni institutlari, ilmiy hamjamiyat vakillari ishtirotkini kengaytirish, jamoatchilik muhokamasi tizimini takomillashtirish hamda norma ijodkorligi jarayonining xalqchil bo'lishini ta'minlash maqsadida 2024-yil 1-martdan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi tartib joriy etilsin: yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida to'plangan ijobjiy tajriba asosida eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjalarni loyihalarni ishlab chiqishdan oldin ularning tayyorlanishi haqidagi axborot normatiy-huquqiy hujjalarni loyihalarni muhokamasi portaliga joylashtiriladi hamda dastlab jamoatchilikning taklif va tavsiyalari olinib, ular asosida tegishli loyihalarni ishlab chiqiladi; normativ-huquqiy hujjalni kuchini yo'qotgan deb topish bo'yicha loyiha ishlab chiqilganda, uning asosida qabul

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

qilingan quyi turuvchi normativ-huquqiy huijatlar xatlovda o'tkazilib, ularni ham o'z kuchini yo'qotgan deb topish masalasi ko'rib chiqiladi⁵.

Xulosa qilib aytganda, huquq – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita. Huquq va ijtimoiy munosabatlar bir – biri bilan bog'liq tushuncha bo'lib, biri ikkinchisini to'ldirib, takomillashtirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. -Toshkent: TDYU, 2021
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://lex.uz>
4. <https://library-tsul.uz>

⁵ <https://lex.uz>